

Ish o'rniga tanlov haqida e'lon

Germaniya Federativ Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi iqtisodiy hamkorlik va barqaror rivojlanish bo'limiga xodim/xodimani **imkon qadar tezroq** ishga olish maqsadida tanlov e'lon qiladi.

Xodima/ xodimga yuklatiladigan vazifalar:

- Germaniya elchixonasi va O'zbekiston muassasalari o'rtafiga aloqalarni yuritish va hamkorlikni muvofiqlashtirish;
- hukumatlararo muzokaralar va maslahatlashuvlarni tayyorlash va o'tkazish;
- delegatsiyalarga hamrohlik qilish;
- rivojlanishga ko'maklashish siyosatiga oid dolzarb o'zgarish va yo'nalishlarni kuzatib borish va hujjatlarni tahlil qilish (hukumat tomonidan qabul qilingan rivojlanish strategiyalari, iqtisodiyotning tanlangan sektorlarini rivojlantirish konseptsiyalari, qonun loyihalari, ommaviy axborot vositalari xabarları va boshqalar);
- rivojlanishga ko'maklashish siyosati sohasidagi ishlar holatiga oid ma'lumot izlash, bayonnomma tuzish va hisobotlar loyihasini tayyorlash;
- xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha loyihalarni ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va yuritish;
- elchixonaning grand loyihalari, shuningdek, rivojlanishga ko'maklashish siyosati sohasidagi boshqa loyihalarni belgilash, boshqarish va amalga oshirishda yordam berish;
- Germaniya va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalalar bilan tanishish va ularni kuzatib borish;
- tarjimonlik faoliyati;
- Germaniyaning rivojlanishga ko'maklashish dasturlari tanlov komissiyasi faoliyatiga yordam ko'rsatish;
- rivojlanishga ko'maklashish sohasidagi hamkorlikka bag'ishlangan nemis tilidagi veb-sahifani yangilash va yuritish.

Tanlov ishtirokchisiga qo'yiladigan talablar:

- kommunikativ ko'nikmalar va rivojlanishga ko'maklashish siyosati sohasidagi hamkorlik mavzusiga qiziqish;
- Internetdan ishonchli foydalanish (ma'lumot qidirish);
- umumiy Microsoft Office dasturlaridan (Outlook, Word, Excel va boshqalar) foydalanish bo'yicha yuqori darajadagi kompyuter savodxonligi, shuningdek, veb-sahifalarni yuritish sohasidagi bilim;

- yozma va og'zaki nutqda nemis va o'zbek tillarini bilish (eng kamida B2 darajada); rus va ingliz tillarini bilish (eng kamida B1 darajada);
- jamoada ishlash qobiliyati;
- Ishni puxta va aniq bajarish hamda katta miqdordagi ish hajmiga bardoshlilik;
- nuqtai nazarni himoya qila olish va hamkorlar va boshqa muassasa vakillari bilan muloqot qila olish qobiliyati.

Ish haqi mahalliy sharoitga va elchixonaning ish haqi tizimiga muvofiq amalga oshiriladi. Ish vaqtiga haftasiga 40 soatni tashkil qiladi. Uch oylik sinov muddati qo'llaniladi. O'zbekiston fuqaroligi bo'limgan nomzodlarning doimiy yashash va ishlash uchun ruxsatnomasi bo'lishi talab etiladi.

Iltimos, arizalarni nemis tilida quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda yuboring:

- Tarjimai hol (resyume)
- Ma'lumotnomalar, diplomlar
- Tavsiyanomalar

Arizalarni 2023 yil 16 oktyabrgacha quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz:

Germaniya Federativ Respublikasi elchixonasining
 - Verwaltung/ Stellenausschreibung WZ-
 Sharof Rashidov ko'chasi 15, Toshkent 100017

yoki bewerbung@tasc.auswaertiges-amt.de elektron manziliga yuborishingiz mumkin.

Iltimos, elchixona faqat to'liq va belgilangan vaqt ichida yuborilgan arizalarni ko'rib chiqishiga e'tibor bering. Ariza qabul qilinganligi haqidagi tasdiq yuborilmaydi va ariza hujjatlari qaytarilmaydi.

Elchixona faqat suhbatga taklif qilingan arizachilar bilan bog'lanadi.

Germaniya Federal tashqi ishlar vazirligi ayollarni kasbiy malakasini ilgari surishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va malakali ayollarni ariza topshirishga taklif qiladi.

Muvaffaqiyatli tanlovdan so'ng, ishga joylashishdan oldin elchixona bilan hamkorlik qiladigan shifokor tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tish orqali nomzodning sog'ligi tarafidan yaroqliligi tasdiqlanishi kerak.

Shaxsiy/xavfsizlik tekshiruvi ham amalga oshiriladi. Sizning ushbu tekshiruvda ishtirok etishingiz talab etiladi.

Qisqa ro'yxatga kiritilgan nomzodlar tanlovning keyingi jarayoniga taklif qilinadi. Tanlovda ishtiroq etish uchun uzoqdan kelgan nomzodlarning yo'l sarf-xarajatlari qoplanmaydi.

Elchixona haqida qo'shimcha ma'lumotni www.taschkent.diplo.de sahifasidan olishingiz mumkin.

Yevropa Ittifoqining umumiyligi ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi reglamentining 13-moddasiga muvofiq ma'lumotlarni quyidagi manzilda topishingiz mumkin:
<https://www.germany.info/us-de/datenschutz>.